



Итак, при формировании концепта Родина, роль семьи неопровержима. Любовь к Родине в сопоставляемых языках приравнивается к любви матери, что обнаруживается в следующих прецедентных выражениях: «Одна у человека мать, одна у него и Родина», «Родина-мать зовёт», «Ана Ўатан-киндик қаным тамган жер». В русских пословицах и поговорках родина приравнивается родной матери: Родина – мать, умей за неё постоять, родная сторона – мать, чужая – мачеха, такое сравнение родины с матерью не наблюдается в каракалпакском языке [5:370-371].

Вторым по значимости наполнения значения концепта Родина выступает лексема «отец»/ «ата». Слово «отец» при переводе на каракалпакский язык передаётся как «эке», «ага», т.е. «мужчина по отношению к детям» [3:430]. Данная лексема в русском языке в производной форме не может выступать выразителем концепта Родина, только его производные такие как отчество, отчизна, отчий выполнят кумулятивную функцию. В Словаре Ожегова слова отчество, отчизна помечены как слова высокого стиля и наряду со значением страны, где родился человек, указывается и на гражданство [3:430]. На политический смысл данного слова указывает Е.М.Игнатов, ссылаясь на работу В.В.Виноградова: «Слово родина не имело в языке Пушкина острого политического смысла, который был связан со словом отчество». Рассуждая о месте лексемы отчество в раскрытии значения концепта Родина И.Сандомирская пишет: «Если солдат Отечества отправляется защищать родной кров, то речь

уже не идет о принадлежащей ему лично избе: родной кров разрастается до жизненного пространства целой нации [4:32]. Именно политический смысл и понятие государственности определяет значение этих слов и они ассоциируются со словами служение, верность, долг, защита. Например: *Гости были: один сосед, уездный предводитель, человек, как он сам считал, здоровых понятий, верный сын церкви и слуга государя и отечества, настоящий русский человек (Л.Н.Толстой). А немцы полезли на отечество рабочих и крестьян, что ж! (В. Гроссман.). Отчизна не забыла своего героя, какие люди! (О.Павлов). Тот ему начал что-то о родине, об отчизне, а он ему и отлил: «Родина, отчизна! Не было у вас ни родины, ни отчизны и быть не может (Ю. О. Домбровский).*

В каракалпакском языке слово «ата» выражает значение «отец, дедушка», в сочетании со словами «мэкан», «журт» оно выражает место обитания предков. Например: *Ер айрылды ата-мэкан жеринен, ақ қуұ ушты туұй өскен көлинен (Әд.альм), Ата журтым Түркістан, онда да пана болмады (Жийен Жырау).* При этом в каракалпакском языке данные лексемы не несут политического смысла, они больше связаны с родным домом, местом и страной, но не выражают в отличие от русского языка значение гражданственности. Наоборот, в каракалпакском языке слово ата мэкан может обозначать дом предков, отчий дом: «Ол ата мэканына көшип кетти». Здесь значение ата мэкан больше соответствует русским выражениям «отчий дом» или «малая родина».

Таким образом, семантическое наполнение концепта Родина может быть рассмотрено в трех ступенях и базовую ступень составляет семья и прежде всего мать и отец. В русском языке в репрезентации концепта Родина активно используются обе лексемы, в каракалпакском языке преобладает использование лексемы «ата» в сочетании со словами «мэкан» и «журт». Данный вопрос требует более тщательного исследования.

Литература

1. Волошин Ю.К. Общий американский сленг: состав, деривация и функция (лингвокультурологический аспект): Монография. – Краснодар: Кубан. гос. ун-т, 2000. – С. 282.
 2. Игнатов Е.М. Место концепта «Родина» среди культурных концептов. //Языковое бытие человека и этноса: когнитивный и психолингвистические аспекты. //Материалы IV международных Березинских чтений. Выпуск 14. –М.: 2008.
 3. Ожегов С.И. Словарь русского языка. - М.: Советская энциклопедия, 1973.
 4. Сандомирская И. Книга о Родине. Опыт анализа дискурсивных практик. – Wien: WienerSlawistischerAlmanach, 2001 (Sonderband 50).
 5. Turabayeva N.A. Paremia as an object of comparative linguoculturology (based on the material of the Russian and Karakalpak languages) Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №4/1 ISSN 2181-9203.
 6. Каракалпак тилиниң түсиндириме сөзлиги 4 томлык, Том 1. - Нөкис: «Каракалпакстан», 1984.
- РЕЗЮМЕ.** «Ватан» концепти универсал бўлиб, дунёнинг кўплаб тилларида ўз ифодасини топан. Бу мақолада рус ва каракалпак тилларида «мать» / «она» / «отец»/ «ата» лексемаларинг «Родина» / «Ватан» концептини ифодалашдаги ўрни кўриб чиқилади. Рус тилидаги Ватан тушунчасининг маъноси тўлдириш иерархиясида оиланинг ўрни она-ота лексемаларини таҳлил қилиш орқали аниқланади.

РЕЗЮМЕ. Концепт «Родина» является универсальным и находит свое отражение во многих языках мира. В данной статье рассматривается место лексем «мать»/«ана», «отец»/«ата» в выражении концепта «Родина»/ «Ватан» в русском и каракалпакском языках. Определяется место семьи в иерархии наполнения значения концепта Родина в русском и каракалпакском языках через анализ лексем мать-отец.

SUMMARY. The concept of “Motherland” is universal and is reflected in many languages of the world. This article examines the place of the lexemes “mother” / “ana”, “father / ata” in the expression of the concept “Motherland” / “Oatan” in the Russian and Karakalpak languages. The place of the family in the hierarchy of filling the meaning of the concept Motherland in the Russian language is determined through the analysis of the lexemes mother-father.

MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARI QORAQALPOQCHA TARJIMASINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

M.Yeshboyeva – tayanch doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: tarjima, yaqin tillardan tarjima, soxta ekvivalentlar, qardosh xalq tili, leksik xususiyat, asliyat.

Ключевые слова: перевод, перевод с родственных языков, ложные эквиваленты, родственный просторечия, лексический признак, оригинальность.

Key words: translation, translation from related languages, false equivalents, related vernacular, lexical feature, originality.

Har bir xalqning rivojlanishida, uning dunyoga tanilishida adabiyot muhim rol oʻynaydi. Adabiyot sohasida esa badiiy tarjima katta ahamiyatga egadir. Tarjima ishlari

nafaqat chet tillari, balki yaqin tillar orasida ham qilinmoqda hamda shu orqali xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy aloqalar ham tobora rivojlanib bormoqda.

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari adabiyotidagi qilina-yotgan tarjimalarga nazar solsak, undagi yutuqlarni sarhisob qilsak, kamchiliklarini ham aytib o'tish, umumiy xulosa berish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Ba'zi bir qilingan tarjima asarlarga e'tibor bersangiz, uni mutarjim xuddi shoirning qalb kechinmalarini boshidan o'tkazgandek tuyuladi, ba'zilarida esa mutlaqo teskari fikr yuritishga to'g'ri keladi. Bu ham tarjimonning bilimi-yu mahoratiga chambarchas bog'liq. Ikki til orasidagi bir-biriga shakli o'xshash, ammo ma'nosi butunlay farq qiluvchi so'zlarning asarlarda yanglish qo'llanilganiga ko'zimiz tushadi. "Shaklan o'xshagani bilan ma'nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so'zlar soxta ekvivalentlar deb qabul qilingan" [13:277], – deydi G'.Salomov. Ba'zi qilingan tarjima asarlarda "soxta ekvivalentlar" uchrab turadi. Bularni Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalarida ham uchratish mumkin. Ijodkorning "Lolaqizg'aldoq" she'rini Bazarbay Seytayeov qilgan tarjimasiga e'tibor qaratsak. Asliyatda:

Men ketsam, yomondan

Yiroq bo'l, ohu. [5:261]

Tarjimada:

Men ketsem: jamannan

Jiraq bol, aq quw [3:12]

O'zbek tilining izohli lug'atida "ohu" so'zi "Chiroyli qora ko'zli kiyik" [11:197] ma'nosini anglatadi, "Qaraqalpoq tilini tushindirmo'sozligi"da aq quw so'zi "Uzun boyl, iymek moyinli, suwda juzetugin ulken qus"[8:49] ma'nosini bildirgan. Bunga ko'ra tarjima asarida xato berilgan.

M.Yusufning "Vatanim" she'rida ham quyidagicha berilgan misralar tarjimada boshqacha berilgan. Asliyatda:

Chambil yurtida Alpomishga

Navkar bo'lib tushgayman. [2:4]

B.Seytayeov qilgan tarjimada:

Jat jurtlarda Alpamisqa,

Noker bolip bararman. [3:22]

"Chambil" so'zi bu joy nomi ya'ni atoqli ot. "Jat" so'zi "Basqa, boten" [7:335] ma'nosini anglatadi.

"Rafiqamga" she'ri asliyatda:

Oydim, ko'ngilda bir ko'shk bezaylik.

Gulim, yur, dilim, yur, gulzor kezaylik. [5:253]

B.Seytayeov qilgan tarjimada:

Aydinim, kewilde bir qosiq bezeyik,

Gulim, jur, janim, jur, gulzar gezeyik. [3:27]

"Ko'shk" so'zi "Dalahovli, shahar tashqarisidagi qasr, qadimda baland, bahavo qilib solingan imorat" [10:479] ma'nosini anglatadi. "Qosiq" so'zi esa "To'rt qatardan ibarat bolip, belgili bir namağa salip aytiwğa bolatuğın poeziyalıq shıǵarmanıń bir túri" [8:22] deya izohlangan. Demak asliyat bilan ma'nosi umuman boshqa.

Shoirning "Daryodek chayqalib..." she'rida esa quyidagicha keltirilgan:

Topganimiz – go'zal qizlar nigohi.

Qilgan hadyamizning bo'lmay adog'i,

Onaizorimiz qabriga gohi

Bitta gul to'shamay umr o'tkazdik. [5:236]

Bu she'rni ham tarjima bilan solishtirib ko'rsak:

Tapqanimiz – gozzal qizlar nazeri,

Qilgan hurmetimizdin bolmadi shegi,

Anamiz qabirine kop jildan beri,

Bir buwat gul qoymay omir otkerdik. [3:11]

Ikkinchi misrasidagi "hadya" so'zi "Taqdim etilgan narsa, sovg'a, tortiq, tuhfa" [12:474] deya izohlangan. "Hurmet" so'zi esa "Birewge yaki bir narsege korsetetugin izzet, siy" ma'nosini anglatadi [9:394]. To'rtinchi misrasidagi "bitta gul" birikmasi o'rniga "bir buwat" birikmasi qo'llanilgan. "Buwat" so'zi "Bolek, baylam, oram, bir qushaq" [6:241] ma'nosini bildiradi. Demak yuqoridagilarning barchasini biz bemalol soxta ekvivalentlar deya ayta olamiz. Chunki ularning barchasi shakl jihatidan bir-biriga juda o'xshash, ammo ma'nolari tamomila boshqa.

Tarjima ishlariga e'tibor qiladigan bo'lsak yutuq va kamchiliklar yonma-yon yuradi. "Tilak" she'ri asliyatda:

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,

Ajin tushsin, yuzlariga dog' tushsin.

Har kimning ham quvvat ketib belidan,

Qo'llarida aso – bir tayoq tushsin. [5:191]

B.Seytayeov o'g'irgan tarjimada:

Hár kimniń de shashlarına aq tússin,

Ajim tússin, juzlerine daq tússin.

Hár kimniń de quwat ketip belinen,

Qollarına hasa – bir tayaq tússin. [3:9]

Mutarjim ushbu she'rni mukammal tarzda tarjima qilgan, hech bir kamchiliksiz, nuqsonsiz o'g'irgan. Bu ham tarjimonning mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Bazarbay Seytayeov Muhammad Yusufning 37 ta she'ri va 2 ta dostonini tarjima qilib, nashr qilganiga bu yil 20 yil to'libdi. Tarjimon bu asarlarda milliy ruhni singdirishda qiyalmay qilgan tarjimalari ham bor. Sababi ikki qardosh xalq tilida talaffuzi ham, ma'nolari ham bir-biriga yaqin so'zlar anchagina. Misol uchun "Mehr qolur" she'ri:

Qorachug'da porlagan o'sha,

Iqboliga chorlagan o'sha,

Dunyoni tor aylagan o'sha –

Mehr qolur, muhabbat qolur. [2:126]

Tarjimada:

Qarashıqta parlagan usı,

Iqbalına sharlagan usı,

Dunyani tar áylegen usı –

Mehir qalar, muhabbat qalar.[3:25]

Yoki boshqa bir she'rini ham ko'rib o'tsak. "Yaxshi" she'ri asliyatda:

Ey do'stlarim, dunyoda,

Ortda qolgan iz yaxshi,

Bulbuli yo'q bahordan

Qumri to'la kuz yaxshi. [4:5]

Tarjimada:

Ay doslarım, dunyada,

Artta qalğan iz jaqsı.

Bulbılı joq báhárden

Qumırı tolı gúz jaqsı. [3:26]

Ko'rinib turganidek, asliyatni tarjima qilishda hech qanday xatolik yo'q. bir qarashda bu osondek tuyuladi. Ammo tarjima qilish ham katta mehnat, bilim, mahoratni talab qiladi. Mutarjim ikki tildan unumli foydalana olmog'i lozim. B.Seytayeov ayrim she'rlarida buning uddasidan chiqqan desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Ish bor joyda, kamchilik bor", – deganlaridek, ba'zi bir she'rlarida ma'no ham o'zgargan. Masalan, "Kechikish" she'rida:

Mana kecha, oti nimaydi

Saltanatning kenja qizini.

Esim qursin, yodda turmaydi,

Bor edi-yu sochi uzuni –

Biz kuyovga uzatdik shuni...

To'yi to'kin o'tdi-yu, lekin

Kuyoviga qizgina tushkur

Ko'ngilsizroq ekanmi, qaydam,

Ko'p yig'ladi, deb keldi kampir. [5:89]

Tarjimada esa quyidagicha berilgan:

Umıttım ba, atı kim edi?

Saltanatnıń genjetay qızın.

Ismi yadta tura bermeydi,

Bar edi-go, shashları uzın.

Uzatpaqta kuyewge búgin.

“Toyi jaqsı óise de lekin,

Kuyewine qızı túspegir.

Kewilsizirek eken be, qáydem,

Kóp juladı” dep keldi kempir. [3:22,23]

Asliyatda to'yining kecha bo'lganligi aytilgan, tarjimada esa bugun uzatilayotganligi hamda uning keyingi bandida esa to'yning yaxshi o'tganligi yozilgan. Bunga

ko'ra kitobxon she'ning o'z ma'nosini anglamay qolishi mumkin. Ammo boshqa misralari o'z ma'nosida o'g'irilgan.

Shoirning "Xavotir" she'ri Bazarbay Seytayev va Kenesbay Karimovlar tomonidan tarjima qilingan. Asliyatda:

*Shoir o'lsa kim ham kuyinar deysiz,
Madhiyaboz hozir suvarakdan ko'p.* [4:11]

K.Karimov tarjimasida:

*Shayir olse kimler kuyiner deysiz,
Uyqastirg'ush hazir qumirsqadan kop.* [1:68]

Asliyatdagi "suvarak" so'zi "qumirsqa" so'zi bilan almashtirib o'g'irilgan. Aslida shoir foydasi tegmaydigan odamlarni ko'p deb o'xshatmoqchi bo'lgan, ammo mutarjim to'g'ri qo'llay olmagan. B.Seytayev tarjimasida esa:

*Shayir olse kimler kuyiner deysiz,
Söz söyler dilwarlar nangórekten kop* [3:24]

tarzida berilgan. Bu esa asliyatdagi ma'nosini ko'rsatib bera olgan.

Shuning uchun ham tarjimon asliyatning tilini yaxshi bilmog'i lozimligini ta'kidlaymiz. Shundagina mutarjim asarning ham ma'nosini, ham leksik xususiyatini o'z o'rnida qo'ya oladi. Asliyatdagi har bir jumlaning hech qanday xatoliksiz o'g'irmog'i lozim. Zero, ma'no-mazmun shunga ko'ra anglashiladi. Bu kabi qilingan tarjimalar, albatta, qayta to'g'ri tarjima qilinmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, tarjima asarning to'g'ri hamda mukammal, asliyat bilan bir xil bo'lmog'i uchun mutarjim chuqur bilim bilan birgalikda qobiliyatga ham ega bo'lmog'i lozim. Chunki yaxshi qilingan tarjima ikki xalq orasidagi ma'naviy ko'priklarni hisoblanadi. Tarjima qanchalik yaxshi bo'lsa, ko'priklarni ham shunchalik mustahkam bo'ladi!

Adabiyotlar

1. Amudaryo jurnali. – Amudaryo: Qoraqalpog'iston, 2014.
2. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. – T.: «Nihol», 2008.
3. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bolamiz (Bazarbay Seytayev tarjimasida). – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2004.
4. Muhammad Yusuf. Oq tulpor. – Namangan: «Namangan nashriyoti», 2003.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: «Sharq», 2019.
6. Qaraqalpaq tilining túsindirme sózligi. Jetti tomliq. 2-tom. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023.
7. Qaraqalpaq tilining túsindirme sózligi. Jetti tomliq. 3-tom. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023.
8. Qaraqalpaq tilining túsindirme sózligi. Jetti tomliq. 5-tom. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023.
9. Qaraqalpaq tilining túsindirme sózligi. Jetti tomliq. 7-tom. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 2-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 3-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 5-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
13. G'aybullay Salomov. Til va tarjima. – T.: «Fan», 1966.

REZYUME. Maqolada Muhammad Yusuf she'rlarining qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalaridan ayrimlari asliyat bilan solishtirilgan hamda undagi yutuq va kamchiliklar izohlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье сравниваются некоторые переводы стихотворений Мухаммада Юсуфа на каракалпакский язык с оригиналом, отмечаются их достижения и недостатки.

SUMMARY. The article compares some of Muhammad Yusuf's poems translations into the Karakalpak language with the original, and mentions their achievements and shortcomings.

ANONIM XATLARDA NOADABIY LEKSIK UNSURLARNING VOQELANISH TURLARI VA XUSUSIYATLARI

S.Yoqubova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nizomiy nomidagi TDPU

Tayanch so'zlar: noadabiy leksika, adabiy norma, lingvistik ekspertiza, kommunikativ maqsad, anonim xat.

Ключевые слова: нелитературная лексика, литературная норма, языковая экспертиза, коммуникативная цель, анонимное письмо.

Key words: non-literary vocabulary, literary norm, language examination, communicative purpose, anonymous letter.

Har qanday nutq umumiy jihatlarga ega. Shu bilan birga, o'ziga xos individual va betakrorlikni ham namoyon etadi. Lingvistik ekspertologiyada lingvistik ekspertizalarni tashkil etishda va ekspert xulosalarini shakllantirishda xususiy omillarni aniqlash va lingvistik belgilarini tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'lyozmalarda shaxsning individual jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq bosma ko'rinishdagi konfliktli matnlarda nutqning xoslanish omillarini aniqlash, anonim xatlarning muallifini topish birmuncha qiyin va murakkab jarayon. Shu sababdan nutqning shaxs yosh xususiyatlariga ko'ra xoslanish omillarini aniqlash lingvistik ekspertologiyada alohida yondashuvni taqozo qiladi.

Shaxsiy yozishmalar tipida turli qo'lyozma xatlar, sms-xabarnomalar, ijtimoiy tarmoq va telegram, whats up, viber messengerlari xabarlar o'rin oladi. Bundan tashqari, turli kommentlar ham lingvistik ekspertizada tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi. Anonim xatlarning har qanday turida shaxsning muayyan xususiyatlarini ifodalovchi belgilar mavjud bo'ladi. Bu belgilar shaxs nutqida leksik unsurlarning qo'llanilishida yaqqol, o'z aksini topadi. Noadabiy leksik unsurlarning anonim xatlarda qo'llanilish omillari, xususiyatlari ham lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Ingliz tadqiqotchilaridan biri T.B. Jay (1981) noadabiy leksik unsurlar har bir so'zlovchi nutqida qo'llanilishi mumkin va u pragmatik jihatidan bir-biridan farqlanishini ta'kidlaydi. Jay tadqiqotlarida noadabiy unsurlar quyidagi turlarga ajratib ko'rsatiladi:

- La'nat so'zlar (Cursing) ;
- Ateistik xarakterdagi kufr so'zlar (Blasphemy);
- Haqorat so'zlar (Profanity)
- Tabular;
- Vulgarizmlar;
- Imo-ishora vositalari (expletives)

Noadabiy leksik unsurlarning barcha turlari (haqorat, vulgarizm, la'nat, argo so'zlar va boshqalar) har qanday tillarning bir qismidir [2:263-275]. Tadqiqotchilar P.Brown va S.Levinsonlarning fikriga ko'ra, axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan leksik unsurlarning nutqda qo'llanilishi madaniy va shaxsiy xususiyatlarga bog'liq [3:156-167]. E.Goffmann fikricha, shaxslararo muloqot noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilishiga motiv bo'lgan asosiy vosita sanaladi. Ushbu vaziyatda nutq egasi ijtimoiy kelib chiqishiga muvofiq bunday so'zlarni qo'llaydi va aksariyat hollarda so'kish, qarg'ish, haqorat so'zlarni tahdiddan himoyalash vositasi sifatida ishlatadi. Beebe Leslie kishilar nutqida noadabiy leksik unsurlar qasddan qo'llanmasligini aytadi. Unga ko'ra, bunday unsurlarning qo'llanilishi salbiy his-tuyg'ularning kuchayishi bilan bog'liq holda amalga oshadi. Locher va Vatt tomonidan esa noadabiy leksik unsurlarning qo'llanilishi adresat va adresantning o'zaro muloqotidagi ta'sir vositalariga bog'liqligi asoslanadi. Kasper muayyan noadabiy leksik unsurning shaxsga ta'sir qilish koeffitsientini baholab, aslida har qanday so'z adresant tomonidan qanday qabul qilinishiga bog'liq, degan fikrni ilgari suradi. O'z fikrini asoslash maqsadida bolalar va o'zga tilni tubdan yaxshi